

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.Abdullayeva</b>	
XX asrning 20-yillarida Buxoro me'moriy obidalarining ta'miroti masalasi .....	324
<b>F.Temirov</b>	
Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari.....	328
<b>I.Naimov</b>	
Ahmad Donish ilmiy merosida islom huquqi masalalari.....	333
<b>R.Rahimov</b>	
Yevropa noshirlik uylari vujudga kelish tarixiga nazar .....	337
<b>D.A.Choriyeva</b>	
Madaniyat sohasida oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar muammosi va yechimlar.....	342
<b>O.V.Mahmudov</b>	
O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Ispaniya shaharlarining o'rni: Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya .....	353
<b>A.A.Hakimov, B.A.Usmanov</b>	
Amir Abdulloning Xorazm yurishi .....	360
<b>N.X.Choriev</b>	
Buxoro Amirligining janubiy hududlarida irrigatsiya tarmoqlarining rivojlanishi .....	365

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>I.Yakubov</b>	
"Modern" o'zbek romanlarida majoziy va xayoliy-parodoksal ifoda .....	368
<b>P.Bakirov</b>	
Turli tizimli tillarda nominatsentrik maqollar mazmun plani .....	373
<b>I.Mannopov</b>	
Yassaviylik adabiyoti tahlili masalasi .....	379
<b>Q.Yo'lchiyev</b>	
Anvar Obidjon lirikasida semiotik xususiyatlar .....	383
<b>J.Eshonqulov</b>	
Hayrat Buxoriy ijodida ijtimoiy hayot va muhit tanqidining badiiy xususiyati .....	388
<b>T.Matyoqubova</b>	
Tuyg'u va kechinmani kitobxonga "yuqtirish" mahorati.....	394
<b>M.Qurbonalieva</b>	
Taqiuddin Muhammad Avhadiy "Arafot-ul-oshiqin" va Mutribiy Samarqandiy "Tazkirat-ush-shuaro" asarlarning qiyosiy tahlili .....	399
<b>I.Eshonqulov</b>	
Tazkiranavislar nuqtayi nazaridan Mirsiddiqxon Hashmatbuxoriy o'rnini anglash .....	405
<b>H.Ne'matova</b>	
Hoji Muinning "Kattaqo'rqon xotiralari" safarnomasi .....	413
<b>X.A.Xaitov</b>	
O'zbek adabiyotida lingvistika asosida kulgi uyg'otish masalasi .....	417
<b>Samadi Nooria</b>	
Maqollarning metodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari .....	421
<b>A.G.Sabirdinov</b>	
Shuhrat she'rlariga bir nazar .....	427
<b>S.Muminov, Z.Kamoliddinova</b>	
Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida qo'llangan sinonimlarining lingvopoetikasiga doir.....	433

#### TILSHUNOSLIK

<b>Sh.Iskandarova, D.Qo'ldasheva</b>	
Furqat g'azallarida jonlantirishlarning ifodalanishi .....	439
<b>Sh.A.Ganiyeva</b>	
Frazeologik ma'no: kategorial va grammatik ma'no muammolari .....	443
<b>D.Yuldasheva, S.Nishonova</b>	
Maqollarda "bola" kontseptining ifodalanishi.....	447
<b>M.Saminjonov</b>	
Tilshunoslikda nutqiy janrlar va soha qasamlari masalasi.....	450
<b>O.Latipov</b>	
Rus, o'zbek, tojik va ingliz <i>tillarida "dog/it/sag"</i> zoonim so'zining konseptual talqini .....	454

## O'ZBEK ADABIYOTIDA LINGVISTIKA ASOSIDA KULGI UYG'OTISH MASALASI

## ПРОБЛЕМА ИЗБЕЖАНИЯ СМЕХА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ НА ОСНОВЕ ЯЗЫКОЗНАНИЯ

## THE PROBLEM OF AVOIDING LAUGHTER IN UZBEK LITERATURE ON THE BASIS OF LINGUISTICS

Xaitov Xamza Axmadovich<sup>1</sup><sup>1</sup>Xaitov Xamza Axmadovich– Buxoro davlat pedagogika institute dotsenti,  
f.f.f.d. (PhD)**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada o'zbek adabiyoti taraqqiyotida lingvistik hodisalardan biri bo'lgan paralingvistikaning kulgi uyg'otishdagi estetik ahamiyati ilmiy-nazariy tahlil qilingan. Tadqiqotda xalq og'zaki ijodining lof, latifa, askiya kabi janrlarining badiiy asar taraqqiyotidagi analitik ta'sirlari o'zbek nasri namunalaridan aniq misollarni tahlil qilish orqali asoslanadi. Zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotida xalq maydon kulgusining o'rni va ahamiyati beqiyos ekanligi dunyo adabiyotshunoslari va o'zbek adabiyoti bilimdonlarining nazariy fikrlari va ilmiy tahlillar orqali asoslangan. Ilmiy-nazariy tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelinadi: Tadqiqotda og'zaki drama, xalq maydon kulgusiga aloqador askiya, lof, latifa janrlarining yozma proza bilan munosabati, ularning zamonaviy o'zbek adabiyotining turli janrlari genezisi va badiiy taraqqiyotida tutgan ma'naviy ahamiyati ko'rsatuvlarda shu yo'nalishdagi materiallardan foydalanish imkonini yaratdi. Tadqiqot tarkibidagi zamonaviy o'zbek adabiyotida kulgi uyg'otish madaniyatining lingvistik ta'sirlari, lisoniy tushunchalar, nutq madaniyati masalasi yurtimizning ommaviy bayramlari va tadbirlarida, askiya aytishuvlarida muhim manba sifatida foydalanish imkonini berdi.*

**Аннотация**

*В данной статье научно и теоретически анализируется эстетическое значение паралингвистики, которая является одним из языковых явлений в развитии узбекской литературы. В исследовании на основе анализа конкретных примеров узбекской прозы проводится аналитическое влияние таких жанров фольклора, как лоф, латифа, аския в развитии художественных произведений. Тот факт, что место и значение народного танца в развитии современной узбекской литературы несопоставимы, основан на теоретических взглядах и научных анализах мировых литературоведов и узбекских литературоведов. В результате научно-теоретического анализа сделаны следующие выводы: В исследовании выявлено соотношение жанров устной драмы, аския, лофа анекдота, связанных с народным смехом, с письменной прозой, их духовное значение в генезисе и художественное развитие различных жанров современной узбекской литературы в показах позволило использовать материалы в этом направлении. Лингвистические эффекты культуры смеха в современной узбекской литературе, лингвистические концепты, а также проблема культуры речи в исследовании позволили использовать ее как важный источник в государственных праздниках и событиях нашей страны.*

**Abstract**

*In this article, the aesthetic value of paralinguistics, which is one of the linguistic phenomena in the development of Uzbek literature, is scientifically and theoretically analyzed. In the study, the analytical effects of the genres of folklore such as lof, latifa, and askiya in the development of artistic works are based on the analysis of specific examples of Uzbek prose. The fact that the place and importance of folk dance in the development of modern Uzbek literature is incomparable is based on the theoretical opinions and scientific analyzes of world literary scholars and scholars of Uzbek literature. As a result of the scientific-theoretical analysis, the following conclusions are reached: In the study, the relationship of the genres of oral drama, askiya, lof, anecdote related to the public laughter with written prose, their spiritual significance in the genesis and artistic development of various genres of modern Uzbek literature in the shows made it possible to use materials in this direction. Linguistic effects of the culture of laughter in modern Uzbek literature, linguistic concepts, and the issue of speech culture in the research made it possible to use it as an important source in public holidays and events of our country.*

**Kalit so'zlar:** Psixologiya, urf-odat, "yondosh", axloqiylikni susaytirish, quvnoqlikni oshirish tendensiyasi, fonatsiya, okulesika, kinesika va hokazo.

**Ключевые слова:** психология, традиция, «приверженность», тенденция к снижению нравственности, повышению жизнерадостности, фонация, окулесика, кинесика и др.

**Key words:** Psychology, tradition, "adherence", tendency to decrease morality, increase cheerfulness, phonation, oculesics, kinesics, etc.

## KIRISH

Dunyo xaritasida har bir xalqning o'ziga xos milliy adabiyoti va etnomadaniyati mavjud. Yer yuzida istiqomat qilayotgan barcha xalq va elatlarni yaxlit sistema deb hisoblasak, bu makrosistema tarkibidagi alohida millatlar muayyan belgilari bilan, xususan, tili, adabiyoti, kelib chiqishi, moddiy va ma'naviy madaniyati, maishiy turmush tarzi va psixologiyasi bilan bir-biridan ajralib turadi. Mana shu o'ziga xos psixologiya, milliy urf-odatlar kulgi madaniyatining turlicha taraqqiyoti, tarixiy genezisi, tamoyillari va milliy adabiyotga badiiy estetik ta'sirini belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan masalaga yondashadigan bo'lsak, badiiy asarlarda kulgi uyg'otishda lingvistik hodisalardan biri paralingvistik jarayon bo'lib, "para"-grekcha-"yondosh",- degan ma'noga teng, demak tilshunoslik bilan yondosh tushuncha.[5.] Paralinvestika nutq vaziyatida yuzaga keluvchi imo-ishora, mimika kabi fikriy tana harakatlarini o'rganadi. Paralingvistika aloqa-aralashuvida-muomalada muhim vazifa bajaradi. Agar nutq ushbu vositalar ko'magisiz tinglovchiga ifodalanihsa, fikr unchalik ta'sir kuchiga ega bo'lmaydi. Aytishicha, mumkin bo'lgan xabar quruq ma'lumot ichiga qoladi. Fikrimizni asoslash uchun quyidagi misolni keltiramiz:

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Meshpolvon dangal oldinga chiqib, lo'lilarga: "To'-o'-o'xtanglar!" deb hayqirdi va "Bularni menga qo'yib be-e ringl-a-a-ar", deya jallodlarga yaqin bordi. Jallodlardan biri masxaromuz tirjayib: "Yordam beringlo'-o'-o'-o'!"-deb atrofga alangladi. Ikkinchisi ham "Alpomishga uchratik-ku, vo-o-o-y do-o-od!"-deb askiyaga qo'shildi."[1.34.]

Keltirilgan badiiy matnda so'zlarni cho'zib talaffuz qilish orqali fonetik paralingvistika hodisasi hosil bo'lgan. Yozuvchi paralingvistik hodisalar orqali qahramonlarning xarakter-xususiyatlarini ifodalash bilan bir qatorda yengil va be'araz kulgini paydo qilgan. Hayqiriqlar orqali axloqiylikni susaytirish va quvnoqlikni oshirish tendensiyasi tomosha teatrining intermediya (interverbals) ko'rinishiga xos xususiyat kasb qilgan. Mana shu dramatik holat maqsadni yanada aniq ifodalashga xizmat qilgan. Fonetik paralingvistikani qo'llashdan maqsad- kitobxonga yuqori his-tuyg'ularda dam olish va ma'naviy zavq bag'ishlashdir. Mana shu fonetik paralingvistika qo'llangan parchani shartli ravishda folklor deb atash mumkin. Sababi ushbu badiiy matnda ifodadan ko'ra ijro ustun turadi. Matnda tasvirlangan lisoniy, inson hayot yo'lida uchrovchi kundalik tafsilotlar matnlarning saqlanish va kitobxonga uzatish holati- bularning barchasi asarning xalq kulgi madaniyatiga mansubligidan dalolat beradi.

Aytmoqchimizki, har qanday fikr o'zining ta'sirchanligiga, jozibadorligiga, mushohada talabligiga ega bo'lmog'i lozim. Paralingvistika aynan shunday jihatlari bilan nutqni obrazlantiradi, shuningdek, jonlantiradi. Bizga ma'lumki, imo-ishoralalar jamiyat taraqqiyotida til (nutq)dan ancha ilgari yuzaga kelgan. Hatto shaxsning gapirishi, fikr ifodalashi uchun imo-ishoralalar asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Mimik jarayonlar asosida dramatik tomoshaning pantamima yo'nalishi paydo bo'lgan. Pantamimalar qizig'i shundaki, til jamiyat taraqqiyotida, shaxsning kamol topishida har qanday o'rni yo'q ekanligini ko'rsatmaydi. Aksincha, ular fikr ifodalashda "oltin qonun" larga amal qiladi. To'g'rirog'i, imo-ishoralalar shaxsning uzoq turmush tajribasining mahsulidir. Shuning uchun ham imo-ishoralarning tarjimoni bo'lmaydi. Bu haqida V.N.Teliya shunday deydi: "Paralingvistika so'z ma'nosining ochilishiga xizmat qilishi bilan birga ulara tinglovchini o'ziga rom qilish xususiyati ham mavjud".[8.] Fikrimizni quyidagi badiiy matn asoslaydi:

"Chol-yigitlar chordona qurib, kampir-juvonlar yerga tizza urib, qizaloqlar qiqirlashib, bolakaylar bir-biriga tixirlashib, oydin maydonga yoyilib o'tirishdi. Shundan keyin Hojixonajina goh u, goh bu hayvonning tusida chakalakdan chiqib, davrani aylanaverdi. Meshpolvon ularni baholiqudrat sharhlab turdi.

-Bunisi Sahroi Kabrning maymun!

-Sahroda maymun nima qiladi? Maymun to'qayda bo'lmaydimi?

-Farosat bormi o'zi? Sahroi Kabrning o'rtasi to'qayzorku." [1.119.]

Ko'rinadiki, imo-ishoralalar so'z ma'nosi bilan hamohanglikda reallashadi. Shunga ko'ra nutq ta'sirchanlik kasb etadi. Demak, nutqning ta'sirchanligi faqat tilning tasviriy vositalari bilan voqealanmaydi, balki paralingvistik vositalar ham fikrni jozibadorligini ta'minlaydi. Darhaqiqat, nutqdagi har qanday jozibadorlik, ta'sirchanlik, obrazlilik ko'chimlar asosida yuzaga keladi. Paralingvistik vositalar esa o'z (asos) ma'nosida ham ta'sirchanlikni berishi mumkin. Xalq madaniyatiga mansub kulgi adabiyoti jamiyatning eng quyi qatlamining dunyoqarashi, munosabatini aks ettiradi. Badiiy parchada Hojixonajina hayvonlarga xos harakatlarni mimik tarzda ifodalab, masxara qilib, goh unchalik tanqidiy emas, istehzoli kulgini Meshpolvonning izohlari orqali o'ynoqi, beg'araz yengil kulgiga aylantirib, o'zgacha, badiiy tasvirning o'ziga xos rasmini yaratadilar. Mana shu holat aynan xalq kulgi madaniyati elementi bilan bog'liq. Paralingvistika bo'limlari:

## ADABIYOTSHUNOSLIK

1)fonatsiya 2)okulesika 3)kinesika

**Fonatsiya-** ovoznining pasayishi yoki kuchayishi, pauza bilan yoki to'xtamasdan, yo'g'on yoki ingichka gapirish so'zlash jarayonida ma'lum axborot beruvchi qo'shimcha faktorlar sanaladi.

**Okulesika-** ko'zlar orqali ifodalangan noverbal aloqa verbal aloqaga nisbatan his-tuyg'uga to'la bo'ladi. Faqatgina bir qarash orqali turlicha axborot yetkazish mumkin.

Fiziologlar ko'zning noyobligini aniqlaganlar: ko'zning birgina rangpardasida egizaklarda ham takrorlanmaydigan 250 dan ortiq xarakter asoratlari kombinatsiyasini sanash mumkin. Charlz Darvin ko'z harakati turli qalb holatlari bilan assotsiatsiya hosil qilishini aytib o'tgan.[7.] Rus va Yevropa millatlari orasida kommunikantlarning nutq jarayonida bir-biriga tik qarab turishi ularning suhbatga bo'lgan e'tiborini, qiziqishini va, albatta, bir-biriga bo'lgan hurmatini ifodalaydi. Janubiy Yevropada istiqomat qiluvchilar uchun yuzga uzoq termulib qarash oddiy holat hisoblanadi, yaponlarda esa bu holat haqorat hisoblanadi va ular aloqa-aralashuv jarayonida yuzga emas, bo'yinga qarashni afzal ko'rishadi. O'zbek xalqida ham so'zlovchining ko'ziga tik qarab turish va termulish millat etikasiga zid hisoblanadi. O'zbeklarda ma'lum bir predmetdan ko'z olmaslik adresantning unga bo'lgan qiziqishini, hayratini, savoliga javob kutayotganligini bildirib keladi: ko'zlar kuladi, xafa bo'ladi, uyaladi, g'azablanadi, hayratlanadi, yig'laydi, so'raydi, javob beradi,

Imlaydi, izlaydi, kutadi, ko'rsatadi, chaqiradi, gapiradi, umidlanadi, orzu qiladi, eslatadi va yana ko'plab ma'no-mazmunlarni ifodalab keladi. Aloqa-aralashuv jarayonida inson boshqa sezgi organlariga nisbatan ko'ruv analizatori orqali 80% ga yaqin taassurot oladi va bu taassurot uning xotirasida uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi. Vizual kontaktning yana bir afzalligi mavjud: ko'z uchun hech qanday lug'atning keragi yo'q. Ko'z orqali yetkaziluvchi informatsiya barcha uchun, qaysi tilda so'zlashmasin, tushunarli va his qilinishi osondir. Kinesika- o'z ichiga imo-ishora, mimika, pantomimika kabi muloqot vositalarini birlashtiruvchi sistema. Paralingvistik kinesika faqatgina insonlarga xos bo'lgan til kommunikatsiyasining bir qismi sifatida qaraladi. Kinemalarning muloqot jarayonida qo'llanilishi barcha paralingvistik vositalar singari nutqni to'ldiradi ta'sirchanligini oshiradi, o'rnini bosadi. Paralingvistik vositalar ekspressivlikni ta'minlashga yordam beradi. Paralingvistik vositalar nutq jarayonida vaqtini tejaydi. Paralingvistik vositalar ayrim hollarda lingvistik vositalar o'rnini ham egallaydi. Paralingvistik vositalar juda xilma-xil bo'lib, turli vaziyatda rang-barang kommunikativ vazifalar bajaradi. Nutq jarayonida fikr ifodalash uchun qarshilik qancha ko'p bo'lsa, paralingvistik vositalar shunchalik ko'p ishlatadi. Fikr qarshiligi ham ikki xil bo'ladi. Bu tashqi va ichki faktorlarga bog'liq. Masalan kommunikatsiya ochiqligida yuz berib, suhbatdoshlarning masofasi uzoq bo'lsa yoki o'zaro masofa yaqin bo'lib, kuchli shovqin suhbatga xalaqit bersa, qo'shimcha noverbal vositalarga imo-ishoralalar va mimikalarga ehtiyoj kuchli bo'ladi. Ichki suhbatlarga ko'ra so'zlovchi va tinglovchining sub'yektiv holatlari bilan bog'liqdir. Xususan tinglovchi (mor) yaxshi eshitmasligi mumkin. Bunday paytda ham imo-ishoralarning ishtiroki faollashadi.

2. Imo-ishoralarning nutq stillari bilan ham bog'liqdir. Tantanali nutq, so'zga chiqishlarda imo-ishoralarning nutqni kuzatib borishi uning tasirchanligini ta'minlaydi. Verbal va noverbal vositalarning bir-biriga o'rinli bog'lab olib borilishi nozik (oratorning) yuksak mahorati belgisi hisoblanadi. Bunda talaffuzdagi ohangarolik, intonatsiya xam muhim rol o'ynaydi.

3. Nutq vaziyati ham belgilangan. O'zaro fikr almash jarayonida yonidagi kishilarga, sheriklariga sezdirmaslik yoki xalaqit bermaslik uchun kinetik vositalardan foydalanish zaruriyati tug'iladi.

4. Kommunikatsiya ochiq bo'shliqda sodir bo'lsa va fikr almashadigan kishilar o'zaro uzoq masofada bo'lib tovush yetkazish imkoniyati qiyinlashishi natijasida ham imo-ishoralardan foydalanishga to'g'ri keladi. Bunda kommunikatsiyaning mazmuni va maqsadi oldindan belgilangan bo'ladi. Faqat ayrim aniqliklar kiritishi mumkin xolos. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, imo-ishoralarning nutq tarkibidagi bajaradigan vazifasi bir xil emas. Ba'zan paralingvistik vositalar nutq bilan birga ishlatilib, uning ekspressiv stilistik ottenkasini kuchaytirish uchun xizmat qilsa, ayrimlari tejamkorlikka uchragan nutq birliklaridan ba'zilarining o'rnini egallash (kompensatsiya qilish) uchun ishlatiladi. Ya'ni bir gurupasi esa o'zining kuzatib borishi lozim bo'lgan verbal asosida tamoman uziladi va shu vaziyatda verbal vosita o'rnida qo'llaniladi. Imo-ishoralarning bu uch vazifasi sinchiklab kuzatilganda, bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligi ko'rinadi va birinchi ikkinchisidan kelib chiqqan deb hukm chiqarishga imkon beriladi. Aniq nutq vaziyatida ma'lum bir ma'no ifodalovchi imo-ishoralalar shu nutq vaziyatini qayta hikoya qilib berish jarayonida ma'lum lingvistik birliklar yordamida tasvir qilinadi. Demak, har bir tilda imo-ishoralarni ifodalovchi bir qator fe'llar mavjud. Bu fe'llar semantik tomonidan ishora fe'llari deyiladi. Masalan: ko'z qisdi, labini burdi va boshqalar.

Insonning mimikalari, qo'l harakatlari tabiiy va shartli xarakterga ega bo'ladi. Masalan: labga qo'ngan pashshani haydash uchun qilingan lab harakati yoki harakati tabiiy harakatdir. Chunki bu harakatlar tinglovchi uchun ham hech qanday axborot bermaydi. Masalan:

-Yorug' dunyoga chiqsak, rosayam boshimiz qotib qolmasmikan, Alamazon!

-Zarari yo'q, o'qitamiz, o'rgatamiz.

-Kerakmas,-zarda bilan qo'l siltadi, Xazina. Keyin siz anqovlarni biz odam qildik deb maqtanishga tushasizlar.

-Qo'ysangchi, Xazina,- ranjib yurishdan to'xtab qoldi Alamazon.-Nahotki sen bizlarni shunaqa paskash odam deb o'ylasang?

Shu payt saroy tarafdin shippakning do'rillagan ovozi eshitildi.

-Ho'-ho'-ho'y, Alamazon!

-Nima?- gapning beliga tepding-ku, degandek qo'l siltadi Alamazon.[2.38.]

Bunday o'rinlarda biz qarama-qarshi matnlarning birgalikda mavjudligi ya'ni, bir tomondan jiddiy(insonning boylik, xazina bilan munosabati),hatto rasmiy xarakterdagi matnlar, ikkinchi tomondan esa kulgi uyg'otuvchi ifodalar. Matnning bir o'rnida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan mantiqning birgalikda mavjudligi xalq kulgi madaniyatining zamonaviy jamiyat tizimida egallagan ikki tomonlama va paradoksal pozitsiyasini ko'rsatadi.

Tinglovchiga qarab turib boshning, ko'z-qoshlar yordamida bir marta o'ngga (ba'zan chapga) silkishi uning bu yerdan chiqib ketishi kerakligini bildiradi. Demak, ma'lum axborot beradi. Shuning uchun bu harakat shartli harakatga egadir. Shartli harakatga ega bo'lgan imo-ishoralar belgi vazifasini bajaradi. Faqat belgi vazifasini bajaradigan imo-ishoralargina paralingvistik belgilar hisoblanadi. Imo-ishoralar ham ba'zan ko'p ma'noli bo'lishi mumkin. Uning qaysi ma'noda ishlatilayotganligini nutq vaziyati orqali bilib olishimiz mumkin. Masalan: "ko'z qishish" harakati quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1.I. – Moro bo'lsin, poshsho qiz! Zuhra kelin qop-qora ko'zini qisib qo'ydi.[3.159.]

2.U. "Hozir bir narsa ko'rsataman" degandek ko'zini qisib qo'ydi-da, tuya sandiq ustida taxlangan ko'rpachalarni tushira boshladi.[3.39.]

Fikrimizni asoslash maqsadida badiiy matnga murojaat qilamiz:

"Rayhon qiziq yoshi boshqalardan ancha salobatliroq, fikri ham daromadliroq ekanini namoyish etmoqchidek "xo'-o'-o'sh"deb qo'yib, picha sukut saqlab turdi, kiprigi pastga terilib, qoshi ko'rshapalakning qanotidek kerilib, o'zicha pichirlashga berilib, hammani mahtal qildi. Katta bir masala chiqqanga o'xshaydi deb sheriklari ziyrak tortishdi. Nihoyat, kiprik yuqori sakrab, qosh quyi ag'rab, Rayhon qiziq tilga kirdi".[2.121.]

### NATIJA VA MUHOKAMA

Xalq kulgi madaniyatini yozma adabiyotga ta'sirini o'rgangan rus olimi M.M.Baxtin lingvistik ta'sirini "adabiyotning karnavalizatsiyasi" deb ataydi. Bunday transpozitsiya adabiyot tabiatining murakkabligini ta'kidlaydi. Karnaval ramziy, hissiy, aniq shakllarning butun tilini ishlab chiqqanini aytib o'tadi. Katta va murakkab tillardan bir butun individual, karnaval, imo-ishoralarga, ommaviy harakatlarga asoslangan adabiyot tilini ishlab chiqqanini alohida ta'kidlaydi.[4.53.] Aytish mumkinki, bu til alohida har qanday til kabi uning barcha shakllariga kirib brogan yagona lekin murakkab karnaval dunyoqarashini ifodalagan. Bu tilni og'zaki tilga hech qanday tarzda to'liq va adekvat tarjima qilib bo'lmaydi. U o'ziga xos hissiy xarakter jihatidan o'zi bilan bog'liq bo'lgan badiiy tasvirlar tiliga ma'lum bir transpozitsiyani beradi.

### XULOSA

Demak, badiiy adabiyot taraqqiyotida paralingvistik hodisalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, asarning badiiy qimmatini oshiradi. Kitobxonga estetik zavq olishda yordam beradi. Xalq kulgi madaniyatiga asoslangan dramatik sahna asari kabi kitobxonni zavqlantiradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Obidjon Anvar. Dahshatli Meshpolvon. Toshkent. Sharq. 2019.b-34.
2. Obidjon Anvar. Yengilmas jangchi. Toshkent. Ziyonashr. 2019. B-38.
3. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. Toshkent. Sharq. 2016.b-159.
- 4.Baxtin M.M. Og'zaki ijodning estetikasi. ED.2. Moskva. 1986.b-53.
- 5.https://ru.m.wikipedia.org/wiki.
- 6.https://studfile.net.preview.page:
7. https://www.skachatreferat.ru.
- 8.https://studfile.net.preview.page: